

**FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQRARISH
INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI
NOMLI III ILMIY ONLAYN KONFERENSIYA
BUXORO AMIRLIGIDA QO'SHIN VA HARBIY MASALALARGA
OID QO'LYOZMALAR TAHLILI (AMIR HAYDAR MAKTUBLARI
ASOSIDA)**

Amonova Dilnura., Osiyo xalqaro universiteti 1-24 JM guruhi talabasi

Yunus Asrorovich Shukurillaev., Osiyo xalqaro universiteti "Tarix va filologiya" kafedrasida dotsenti, tarix fanlari nomzodi

Tayanch so'zlar: maktub, muntazam qo'shin, sarbozlar, qoracherik, navkar, suvoriy

Annotatsiya: Mazkur maqolada Buxoro amiri Haydar tomonidan amalga oshirilgan harbiy islohotlar O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondida saqlanayotgan hujjatlar orqali bayon etiladi

**АНАЛИЗ РУКОПИСЕЙ ПО АРМИИ И ВОЕННЫМ ВОПРОСАМ
БУХАРСКОГО ЭМИРАТА (НА ОСНОВЕ ПИСЬМО АМИРА
ХАЙДАРА)**

Ключевые слова: письмо, регулярная армия, сарбазы, карачерик, навкар, конный солдат

Аннотация: В данной статье военные реформы, проведенные эмиром Бухары Хайдаром, описаны на основе документов, хранящихся в рукописном фонде Института востоковедения Академии наук Республики Узбекистан.

**ANALYSIS OF MANUSCRIPTS ON THE ARMY AND MILITARY
ISSUES OF THE BUKHARA EMIRATE (BASED ON THE LETTER OF
AMIR HAYDAR)**

Key words: letter, regular army, sarbazy, karacherik, navkar, mounted soldier

Annotation: In this state, the military reforms carried out by Emir Bukhari Khaidarom, description of the basic documents, preserved in the manuscript fund of the Institute of Oriental Studies, Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan

FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQRISH INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI NOMLI III ILMIY ONLAYN KONFERENSIYA

Kirish: Mang'itlar sulolasi hukmronligida Amir Haydar hukmronligi davriga (1800-1826) kelib dastlabki tub o'zgarishlar ro'y berib, ya'ni ma'lum ma'noda muntazam armiya tashkil etildi, deyishga asos bor¹. Biroq, ba'zi tarixchilar bu fikrga to'la qo'shilmaydilar. Tadqiqotchi B. Ismoilova Buxoro amirligida armiya va harbiy ishlarni tashkillashtirishni ikki bosqichga bo'ladi va I bosqichni XIX asr boshlaridan XIX asrning 30 – yillarigacha, ya'ni amir Haydar davrida hisoblab, bu davrni shu sohaga dastlabki asos qo'yilganligi, to'la muntazam armiyani tashkil etilganligini esa II bosqichda Amir Nasrulloxon davriga (1827–1860 yy) to'g'ri kelib to 1837 yilda oxirga yetkazdi, deydi².

O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondida saqlanayotgan turkum hujjatlarga³ tayanadigan bo'lsak, Amir Haydar tomonidan muntazam qo'shin tuzilishiga qa'tiy harakatlar amalga oshirilganligiga guvoh bo'lamiz. Xususan Amir Haydarning Muhammad Hakimbiy Devonbegiga yozgan quyidagi maktubida bu yaqqol ko'zga tashlanadi: -Amirlikning izzatga loyiq, qadri baland ishongan kishisi Podshohona marhamatlardan sarafroz bo'lgan holda bilingkim, Sizning qutlug' rikobimizga yo'llagan arizangiz yetib keldi. Uning mazmuni tushunildi. Alhamdulillah, har jihatdan xotirimiz jam' bo'ldi. Navkarlarni ko'rikdan o'tkazib, zudlik bilan bizning xizmatimizga jo'nating. Ularga lozim bo'lgan mehribonchilikni ko'rsatamiz. Bu tomondagi boshqa ahvolot va axborotni bir odam yuborsangiz ko'rib qaytgach, aytib berishadi. Vassalomu alaykum⁴. 1217 (1802)

Amirlikning doimiy armiyasining tashkil etishga sabablardan biri bu Rossiyadan 1826 yilda Negri missiyasiga hamrohlik qilib kuzatib kelgan rus askarlari va kazaklarining Buxoroga kelishidir, degan taxmin bor. Aslida amir Haydar davrida muntazam qo'shin tashkil etishga to'la erishilmadi. Chunki merosxo'rlar o'rtasida hokimiyat uchun o'zaro kurashlar, ichki nizolar, bo'ysunmas amaldorlarni jilovlash bu ish yo'lida katta to'sqinlik qildi.

Tahlillar: Amir Haydar doimiy qo'shinni Qarshida tuzishga harakat qildi, chunki bu yerdagi harbiy garnizon eng kuchli edi. U tashkil etgan qo'shinda zobit va harbiy boshliqlar sarkarda maqomiga ega bo'lib, davlat xazinasidan

¹ Андреев М. С, Чехович О.Д. Арк Бухары. Душанбе, 1972.- С. 136.

² Исmoilova Б. Бухарский эмират при эмире Хайдаре. Худжанд. 2000., С.- 36.

³ O'zR FA Shl. Qo'lyozma № AR-5412, 1961/11, 292/1, 1836 qo'lyozmalar

⁴ Maktuboti Amir Haydar. O'zR FA Shl. Qo'lyozma № AR-5412, 4-maktub, 3-bet.

FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQRISH INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI NOMLI III ILMIY ONLAYN KONFERENSIYA

maosh olar edilar. Oylik maoshlar qisman pul, qolgan qismi esa natural tarzda to'lanar edi. Panjsadboshi o'zining belgisiga – bayrog'iga ega edi. Mingboshining yonida doimo bundan kattaroq bayroq bo'lar edi va bu «tug'» deb yuritilgan. Bunday bayroqqa ming kishilik guruh haqli bo'lib, uning boshlig'i hurmatli sanalar, ark darvozasidan otda o'tishga haqli, boshqa zobitlar esa piyoda kirar edilar⁵.

Yana bir maktubda mazkur masalaga oydinlik kiritiladi:

- Amirlikning izzatga loyiq, davlatning ishongan kishisi Muhammad Hakimbiy Devonbegiga. Podshohona marhamatlardan sarafroz bo'lgan holda bilingkim, 500 nafar shogirdpesha, 900 nafar mang'it kishisi, 100 nafar saroy kishisi, ya'ni ming kishiga, jami 15000 kishiga, har biri uchun ikki tildan 3000 tillo jo'natyapmiz. Bu uch ming tilloni navkarlarga tarqating. Xabarqo'rg'on va G'arjobga yakka ilg'or qo'shından qancha kerak bo'lsa, navbat bilan shuncha yuborib turing. Bastaxonga ham navbat bilan 15-20 nafar ilg'or berib turing...⁶

Amirlik artilleriyasi Eronda ishlab chiqarilgan bir necha to'plardan tashkil etilgan bo'lib, ularning uch – to'rttasi lafet (temir suyanchiq)ga ega edi. Qo'shin asosan mahalliy aholi vakillaridan iborat bo'lib hech qanday harbiy tartiblarga rioya etmas edi. Qo'shinning katta qismi Qarshidan sharqda Shahrisabz kenegaslaridan himoyalaniş maqsadida saqlanardi. Qarshi shahri devor bilan o'ralgan bo'lib, ichkarida qo'rg'on mavjud edi. Viloyatda esa o'nlab qo'rg'onlar bo'lgan. Mavjud Gurdshob, Karki, Sherobod va boshqa bir qancha qo'rg'onlar loytuproq devorlar bilan o'ralgan, ichkarida – ko'handiz (sitadel) – qal'a bo'lardi. Harbiy harakatlar chog'ida aholi himoyalaniş uchun qo'rg'onga to'planishib turishgan, garnizonlarda 10 tadan 200 tagacha askarlar saqlangan.

Amir Haydar Buxoroga kelgach, Hakimbiyga qo'rg'on va qal'alarni doim bekam – ko'st saqlash, devorlarni yetti metrgacha yetkazish, Navro'z kunlari xavfsizlik choralarni kuchaytirish, qo'rg'on burchaklarida yashash xonalarini qurishga buyruq berib xatlar yozgan.

Qarshi viloyatida harbiy qismlar quyidagicha shakllantirilgan: 500, Saroy urug'idan 100 nafar, askarlikka, 400 kishi qorachiriq ishlar uchun, aymoq jamoasi 300 kishi, arab, o'z qavmlaridan 20 kishidan, qo'shchilar – 50, qatag'on – 6, arlot – 10, yag'du – 20, do'rmon – 4, panjobiy – 20, qorluqlar – 15,

⁵ Истоилова Б. Бухарский эмират при эмире Найдаре. Худжанд. 2000., С.- 40.

⁶ Maktuboti Amir Haydar. O'zR FA ShI. Qo'lyozma № AR-5412, 7-maktub, 4-bet.

FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQRISH INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI NOMLI III ILMIY ONLAYN KONFERENSIYA

xitoyliklar faqat shogirdpeshalikka – 13 kishi, siroblar – 12 kishi doimiy xizmatda bo'lishlari shart edi⁷.

Amir Haydar o'zining bir maktubida Muhammad Hakimbiyga “Yaxshi, qobiliyatli shogirdpeshalarni navkarlikka o'tkazing, lekin ularning soni 500 tadan oshmasin, qobiliyatsiz shogirdpeshalarni uyiga haydab yuboring” deb yozad.

Amir Haydarning quyidagi maktubi qo'shin tarkibi, soni, ularga beriladigan maosh masalalariga oydinlik kiritadi:

O'zbek urug'lari bo'lmish saroy urug'ining qoracherik va navkari bilan 500 nafarini, boybachchai mang'it urug'ining 100 nafar, mang'it qaroherigining 180 nafarini, aymoqlardan 300 nafarini, arablardan 300 nafar, Qarshi tashqarisidan bo'lgan fuqarolardan 100 nafar, o'zlardan 20 nafarini, qo'shchi urug'idan 50 nafar, qatag'onlardan 6 nafarini, arlot urug'idan 10 nafar, qirriqdan 15 nafarini, xitoy urug'idan 15 nafarini, yobulardan 20 nafarini do'rmandan 20 nafarini, mirkonlardan 50 nafar, biylarning 25 nafarini, xataklardan 25 nafarini, Darband mirkonlaridan 13 nafarini, saroylardan yana 12 nafarini Shahrizabz ustiga yubordik, inshaalloh, payshanba kuni, shu oyning 28 ida suvoriylar yetib boradi. Qarocherik uchun aytilganlarni tayyorlab qo'ying. Bu safar shahar ichkarisidan tashqarisiga qadar xizmat uchun 60 kishini tayin qilsangiz yetadi. Nayza Qorovulbegi yoki Mullo G'oyib Qorovulbegini 20 nafar mirkonlar hamrohligida o'zbek urug'lariga qo'shib, Karkining Kunkaji mavzesiga yuboring. Qolgan og'zaki gaplarni jo'natgan odamingiz aytib beradi. Assalomu alaykum.⁸

Shogirdpeshalar asosan garnizon va ko'rg'on ichidagi yumushlarni bajarishar edi. Qoracheriklar esa haddan tashqari urushga ko'p jalb etilgan, ba'zan shu tufayli ular o'rtasida noroziliklar kelib chiqqan.

Qo'qon xonligida ham harbiy harakatlar vaqtida qo'shinga jalb etiluvchi yordamchi bo'linmalar- “qoraqozon” va “qoracherik” tarkibiga safarbar qilish SHERALIXON hukmronligi davrida ma'lum bir tartibga keltirilib yangi nomuntazam yordamchi bo'linma “qilquyruq”ga asos solindi. Qo'shinda “shogirdpeshalar” bo'linmasi mavjud bo'lib, unga boshqa bo'linma larning yosh, iqtidorli, o'ziga

⁷ Исмоилова Б. Бухарский эмират при эмире Найдаре. Худжанд. 2000., С.- 44.

⁸ Maktuboti Amir Haydar. O'zR FA ShI. Qo'lyozma № AR-5412, 9-maktub, 6-bet.

FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQRARISH INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI NOMLI III ILMIY ONLAYN KONFERENSIYA

to'q vakillari saralanib olinib ularga turli jang uslublari, harbiylarning boshqarish san'ati o'rgatilgan⁹

Buxoro amirligi qo'shinidagi dastalarda askarlar soni bir xilda bo'lmagan. Har qaysi urug' va hudud mavjud imkoniyatlardan kelib chiqib yoki amirlikdagi nufuziga qarab qo'shin soni belgilangan. Bundan tashqari, qo'shin tarkibida turli davlatlar fuqarolari hisoblangan harbiy asirlar, qullar va boshqa toifa vakillari ham mavjud edi.

Xulosa: Umuman, Amir Haydar mamlakat mudofaasi, muntazam qo'shin tuzish yo'lida e'tiborga molik ishlarni amalga oshirdi, u boshlagan harbiy islohotlar uning vorisi Amir Nasrulloxon tomonidan rivojlantirildi

Foydalanilgan adabiyot va manbalar

1. Андреев М. С, Чехович О.Д. Арк Бухары. Душанбе, 1972.
2. Исмоилова Б. Бухарский эмират при эмире Хайдаре. Худжанд. 2000.
3. O'zR FA ShI. Qo'lyozma № AR-5412, 1961/11, 292/1, 1836 qo'lyozmalar
4. Maktuboti Amir Haydar. O'zR FA ShI. Qo'lyozma № AR-5412
5. Shukrullayev, Y. A. The Army of Bukhara Emirate and Military Affairs (1756-1920). Synopsis of candidate dissertation in history.-Tashkent, 2006.-26 pp.; On the Issue of Diplomatic Relations between Russia and Bukhara through Orenburg at the End of the XVIII-th-the Beginning of the XIX-th Centuries. *Social Sciences in Uzbekistan*.-1962, 7, 55-59.
6. Shukrullayev, Y. A., & Bahritdinovna, S. R. (2023). GERMANIYA FEDERATIV RESPUBLIKASI IQTISODIYOTINI TIKLASH HARAKATI.“IQTISODIY MO 'JIZA”. *Innovative Development in Educational Activities*, 2(7), 577-587.
7. Shukrullayev, Y. A. (2022). FRANSIYA–O 'ZBEKISTON ALOQALARINING TARIXIY ILDIZLARI. *Educational Research in Universal Sciences*, 1(3), 110-113.
8. Шукруллаев, Ю. А. Армия Бухарского эмирата и военное дело (1756-1920 гг.). Автореферат кандидатской диссертации по истории.-Ташкент, 2006.-26 с.; К вопросу о дипломатических сношениях между Россией и

⁹ Tursunov B. Qo'qon xonligida harbiy ish va qo'shin: holati, boshqaruvi, an'analari. (XIX asrning 70 – yillarigacha. Tarix fan. nom. diss. ... T., 2006.- 141 b.

FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQRISH INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI NOMLI III ILMIY ONLAYN KONFERENSIYA

Бухарой через Оренбург в конце XVIII-начале XIX веков. *Общественные науки в Узбекистане.*-1962, 7, 55-59.

9. Шукриллаев, Ю. А. (2006). Бухоро амирлигида қўшин ва ғарбий иш (1756-1920 йиллар). Тарих фанлари номзоди илмий дражасини олиш учун езилган диссертация.-Тошкент, 2006.

10. Шукуриллаев, Ю. (2023). ВОЕННЫЕ РЕФОРМЫ В БУХАРСКОМ ЭМИРАТЕ ПОД ПРОТЕКТОРАТОМ. *THEORY AND ANALYTICAL ASPECTS OF RECENT RESEARCH*, 2(16), 249-260.

11. Шукуриллаев, Ю. А. (2023). БУХОРО АМИРЛИГИДА ҚЎШИН ТАРКИБИГА ҚАБУЛ ҚИЛИШ ҚОИДАЛАРИ, АСКАРЛАРНИНГ ҚЎШИН ТАРКИБИДАН ҚОЧИШИ (ДЕЗЕРТИРСВО), САБАБИ ВА ОҚИБАТЛАРИ. *Innovative Development in Educational Activities*, 2(8), 513-524.

12. Шукуриллаев, Ю. (2022, December). СОЗДАНИЕ ВОЕННЫХ УСТАВНЫХ ГРУПП ЕВРОПЕЙСКОГО ТИПА В БУХАРСКОМ ЭМИРАТЕ. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE "THE TIME OF SCIENTIFIC PROGRESS"* (Vol. 1, No. 4, pp. 42-51).